## SPECIFIC FEATURES OF AMENDING PUBLIC PROCUREMENT CONTRACTS

**Samandarova Feruza Bakhromjon kizi,**  
Basic Doctoral Student of Tashkent State University of Law

**Abstract.** *This article analyzes the introduction of amendments to public procurement contracts based on current legislation. Although civil law allows for unlimited changes to the contract at the discretion of the parties, the specific legal nature of the public procurement contract permits only certain modifications. The scientific work highlights the insufficient regulation of the institution of amending a public procurement contract in legislation, restrictions on concluding an additional agreement, and problems related to the application of the law. In particular, barriers to payment for additional work performed will be analyzed. A comparative analysis is also conducted based on the experience of Germany, Austria, and Kazakhstan, revealing the advantages of a “significant change” and a clear list of changes. At the end of the study, proposals were developed to improve contractual relations.*

**Keywords:** *public procurement, contract, freedom of contract, modification, additional agreement, essential terms, contract price*

### Kirish

Bugungi kunda davlat xaridi tizimi byudjet mablag'laridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlovchi muhim huquqiy institutlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat xaridlari markaziy axborot portalida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning yanvar-aprel oylari davomida mamlakatimizda umumiy qiymati 50,07 trln so'mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan. Shundan 501 700 ta 43,25 trln so'mlik shartnomalar imzolangan (DXMAP, n.d). Ushbu sohada shartnomaviy munosabatlarni yanada takomillashtirish, xususan, davlat buyurtmachilari va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi huquqiy aloqalarni rivojlantirish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat xaridi shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqli ravishda ma'muriy-huquqiy elementlarni ham mujassamlashtirganligi huquqiy tartibga solishda alohida yondashuvni talab qiladi.

Davlat xaridi shartnomalariga o'zgartirish kiritish masalasi mazkur munosabatlarning eng murakkab va bahsli jihatlaridan biri hisoblanadi. Bir tomondan, shartnoma shartlarining barqarorligi va xarid natijalarining o'zgarishsizligini ta'minlash zarur bo'lsa; ikkinchi tomondan, xo'jalik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy, texnik va tashkiliy omillar shartnomani ma'lum darajada moslashtirishni talab etadi. Aynan shu qaramaqarshilik davlat xaridlari shartnomalariga o'zgartirish kiritish institutining o'ziga xos huquqiy tabiatini belgilaydi.

Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari sohasida shartnomaga o'zgartirish kiritish masalasi yetarli darajada tizimli tartibga solinmagan bo'lib, bu amaliyotda turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, qo'shimcha ishlar hajmining oshishi, shartnoma muddatlarini o'zgartirishdagi cheklovlar shartnomaviy munosabatlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xorijiy tajriba, xususan, Germaniya, Avstriya va Qozog'iston davlatlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari shartnomalariga o'zgartirish kiritish masalasi “muhim o'zgarish” konsepsiyasi hamda aniq belgilangan asoslar tizimi orqali tartibga solinadi.

Mazkur maqolaning maqsadi empirik, normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil hamda analiz-sintez metodlarini qo'llagan holda, davlat xaridi shartnomalariga o'zgartirish kiritishning huquqiy tabiatini tahlil qilish, amaldagi qonunchilik va amaliyotdagi muammolarni aniqlash hamda xorijiy tajriba asosida ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### Asosiy qism

Davlat xaridi – bu davlat ehtiyoji uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olish bo'lib, davlat infratuzilmasini moddiy-ma'naviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi (Okyulov et al., 2021) Shartnoma – mohiyatiga ko'ra tomonlarning xohishlarini o'zida ifoda etgan hujjat. Umumiy qoidaga ko'ra, shartnoma taraflarning xohishiga asosan

o'zgartirilishi mumkin. Taraflardan birining talabi bilan, faqat ikkinchi taraf shartnomani jiddiy buzsa yoki qonunda belgilangan hollardagina sud tomonidan o'zgartirishga yo'l qo'yiladi (Zokirov, 2006).

Shartnoma tuzish erkinligi prinsipi uning taraflariga o'zaro kelishib shartnomani o'zgartirish imkonini beradi. Bu esa jadal rivojlanib boradigan sharoitlarda tadbirkorlarga shartnomaviy majburiyatlarga aniqliklar, qo'shimchalar kiritishga imkon beradi (Rahmonkulov, 2009). Shartnoma erkinligining bir jihati tomonlarning fuqarolik shartnomasining mazmunini yoxud muhim shartlarini mustaqil ravishda belgilash qobiliyatidir (Podshilova et al., 2018). Ammo davlat xaridlari shartnomalariga o'zgartirish kiritish odatdagi fuqarolik shartnomalaridan farqli ravishda, jiddiy cheklovlar bilan chegaralangan (Samandarova, 2025). Shu jihatdan davlat xaridi shartnomasiga kiritiladigan har qanday o'zgartirish aslida faqat ikki tomonning irodasi mahsuli emas, balki xarid qilish tartib-taomili natijasida shakllangan huquqiy rejimga ta'sir qiluvchi omil sifatida baholanadi.

Tadqiqotchi olim Gurevaning fikricha, shartnoma tuzilayotgan paytda muhim deb belgilangan shartlarni, garchi bu jamoat manfaatlariga ziyon yetkazmasa-da, o'zgartirish mumkin emas. Shu sababli muhim shartlar tushunchasining aniq chegarasini belgilab olish zarur (Gureva, 2025, p. 82). Rus olimi Shmelova esa davlat xaridi shartnomalarini bir tomonlama yoki o'zaro kelishuvga asosan o'zgartirishda cheklovlar mavjudligiga sabab qilib, davlat buyurtmasi asosida tuzilishini ko'rsatadi (Shmeleva, 2013, p. 129).

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni 34-moddasi 10-bandiga muvofiq, xarid qilish tartib-taomili natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv kiritish imkoniyati qat'iy cheklangan bo'lib, bunday o'zgartirishlar shartnomaning muhim shartlariga ta'sir ko'rsatmasligi sharti bilan yo'l qo'yiladi. Xususan, mazkur normada tovar (ish, xizmat) ning turi, sifati va assortimenti, miqdori hamda bahosi, shuningdek, yetkazib berish muddatini uzaytirish kabi muhim shartlarni o'zgartirishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan. Ushbu yondashuv davlat xaridlari sohasida shartnoma erkinligi prinsipining sezilarli darajada cheklanganligini ko'rsatadi.

Mazkur cheklovlarning huquqiy mohiyati shundan iboratki, davlat xaridi shartnomasi oddiy fuqarolik-huquqiy bitimdan farqli ravishda maxsus taomillar natijasi asosida shakllanadi va uning shartlari bozor raqobati muhitida aniqlanadi. Shu sababli shartnoma tuzilgandan keyin uning muhim shartlarini o'zgartirish aslida tanlov natijalarini buzish va boshqa potensial ishtirokchilarning huquqlariga putur yetkazish sifatida baholanadi. Bu jihat xalqaro yondashuvlarda ham o'z aksini topgan bo'lib, xususan, Yevropa Ittifoqi huquqida *substantial modification* (muhim o'zgartirish) tushunchasi orqali shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar xarid natijalariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan hollarda yangi xarid tartibini o'tkazish zarurati asoslab beriladi. Davlat xaridi shartnomasiga qo'shimcha kelishuv kiritish instituti o'z mohiyatiga ko'ra dispozitiv emas, balki imperativ xarakterga ega bo'lib, unda taraflarning irodasidan ko'ra ommaviy manfaat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi norma 2024-yil 27-noyabrdagi O'RQ-1005-sonli Qonun bilan sezilarli darajada takomillashtirilgan. Qonunning avvalgi tahririga ko'ra, xarid qilish tartib-taomili natijasida tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv faqat uning muhim shartlarini o'zgartirmagan taqdirda tuzilishi mumkin bo'lgan, biroq ayrim istisno tariqasida shartnoma umumiy qiymatining 10 foizidan oshmaydigan miqdorda qo'shimcha ishlar va xizmatlarni bajarishga ruxsat berilgan. Mazkur qoida amaliyotda shartnomani qisman moslashtirish imkonini beruvchi muayyan moslashuv mexanizmi sifatida xizmat qilgan. Biroq yangi tahrirda ushbu 10 foizlik limitning chiqarib tashlanishi davlat xaridlari sohasida shartnoma shartlarini o'zgartirishga nisbatan yanada qat'iy yondashuv joriy etilganligini ko'rsatadi. Endilikda qonunchilik shartnomaning muhim shartlarini o'zgartirishga deyarli mutlaq taqiq o'rnatib, faqat qonunda bevosita nazarda tutilgan holatlarga istisno sifatida e'tirof etilishini belgilaydi. Bu esa davlat xaridlari tizimida raqobat tamoyillarini mustahkamlash, xarid natijalarining barqarorligini ta'minlash hamda shartnoma ijrosi bosqichida korrupsion xavflarni kamaytirishga qaratilgan huquqiy siyosatning kuchayganidan dalolat beradi.

Davlat xaridi shartnomalarini o'zgartirish masalasi xalqaro va milliy huquq tizimlarida turlicha tartibga solinadi. Xususan, Yevropa Ittifoqining Davlat xaridlari to'g'risidagi 2014/24/EU direktivasining 72-moddasi shartnomaga o'zgartirish kiritishni aniq mezonlar asosida ruxsat etadi va

bu jarayonni *substantial modification* konsepsiyasi orqali cheklaydi (European Parliament and Council of the European Union, 2014). Mazkur norma mohiyatiga ko'ra, shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish, agar u xarid natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, yangi xarid tartibini o'tkazishni talab qiladi. Shu orqali Yevropa Ittifoqi huquqi shartnomani emas, balki aynan tanlov natijasini huquqiy himoya obyektida belgilaydi. 72-modda tizimli jihatdan ikki asosiy yondashuvni birlashtiradi: bir tomondan, u o'zgartirishlarni qat'iy cheklaydi; ikkinchi tomondan esa muayyan hollarda (oldindan nazarda tutilgan holatlar, qo'shimcha ishlar, oldindan ko'rib bo'lmaydigan holatlar, kichik miqdordagi o'zgarishlar) ruxsat etadi. Agar o'zgartirish boshqa ishtirokchilarni jalb qilishi mumkin bo'lsa, shartnoma bahosini o'zgartirsa yoki uning hajmini kengaytirsa, u muhim o'zgartirish deb topiladi va noqonuniy hisoblanadi.

Davlat xaridlari to'g'risidagi UNCITRAL Model qonuni 63-moddasi davlat xaridi shartnomalarini o'zgartirish masalasida qat'iy yondashuvni belgilaydi. Mazkur normaga ko'ra, hadli bitim amal qilish davrida xarid predmetini o'zgartirishga mutlaq yo'l qo'yilmaydi, boshqa shartlar esa faqat oldindan mazkur kelishuvda nazarda tutilgan doirada o'zgartirilishi mumkin (United Nations Commission on International Trade Law, 2011). Ushbu qoida davlat xaridlarida shartnoma tuzilgandan keyin uning mazmunini o'zgartirish orqali xarid natijalarini buzishning oldini olishga qaratilgan. Shu jihatdan, 63-modda davlat xaridlarida shartnoma erkinligini cheklab, o'zgartirishlarni faqat oldindan belgilangan mexanizmlar orqali amalga oshirishni talab etadi. Mazkur yondashuv amaliyotda yuzaga keladigan qo'shimcha ishlar va shartnoma ijrosi bilan bog'liq muammolarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin, chunki u o'zgartirish ehtimolini shartnoma tuzilish bosqichidayoq huquqiy jihatdan tartibga solishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni 34-moddasi 10-qismida esa shartnomaga qo'shimcha kelishuv kiritish masalasi soddaroq, biroq qat'iyroq shaklda ifodalangan. Mazkur normaga ko'ra, shartnomani o'zgartirishga faqat uning muhim shartlari – tovar (ish, xizmat) ning turi, sifati va assortimenti, miqdori, bahosi hamda yetkazib berish muddati o'zgarmagan taqdirda yo'l qo'yiladi. Bu yondashuvda Yevropa Ittifoqi huquqidagi kabi murakkab mezonlar mavjud emas, balki muhim shartlarni o'zgartirmaslik orqali to'g'ridan to'g'ri taqiq qo'llaniladi.

Biroq solishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi modeli qat'iy cheklovlar bilan bir qatorda muayyan darajada moslashuvchanlikni ham ta'minlaydi. Ya'ni u o'zgartirishlarni faqat taqiqlabgina qolmay, balki ularni aniq chegaralar asosida ruxsat etadi. O'zbekiston qonunchiligida esa aksincha, qat'iy imperativ yondashuv ustuvor bo'lib, bu amaliyotda shartnoma ijrosining moslashuvchanligini cheklashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, davlat xaridi shartnomalarini o'zgartirish institutini takomillashtirishda Yevropa tajribasidan foydalanish, xususan, "muhim o'zgartirish" mezonlarini normativ-huquqiy hujjatlarda joriy etish va muayyan o'zgartirishlarga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda shartnoma doirasida qo'shimcha tovar (xizmat, ish) obyektiv zarurat sifatida bajarilsa-da, ularning moliyalashtirilishi bilan bog'liq jiddiy muammolar yuzaga keladi. Xususan, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikda shartnomaning muhim shartlarini o'zgartirishga qo'yilgan qat'iy cheklovlar sababli qo'shimcha kelishuv tuzish imkoniyati cheklanadi, natijada amalda bajarilgan qo'shimcha ishlar uchun to'lovni rasmiylashtirish qiyinlashadi. Bunday vaziyatda buyurtmachi tomonidan to'lovni rad etish yoki cho'zish holatlari kuzatiladi, ijrochi esa iqtisodiy zarar ko'rgan holda qoladi. Mazkur holat davlat xaridlari tizimida shartnoma barqarorligi prinsipi bilan xo'jalik faoliyatining real ehtiyojlari o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi hamda qo'shimcha ishlarni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Davlat xaridlari sohasidagi amaldagi qonunchilikda shartnomani o'zgartirish va qo'shimcha ishlarni moliyalashtirish masalasida muayyan qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun shartnomaning muhim shartlarini o'zgartirishni qat'iy cheklasa, Oliy xo'jalik sudi plenumining "Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida

10 foizgacha bo'lgan miqdorda ortiqcha ishlar bajarilganda shartnoma bahosini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini nazarda tutadi. Ushbu normativ nomuvofiqlik amaliyotda sudlar va taraflar uchun huquqni qo'llashda noaniqliklarni keltirib chiqarib, qo'shimcha ishlar uchun to'lovni undirish hamda shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish masalalarida turlicha yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 71-moddasi 14-bandi agar qo'shimcha ishlar bajarilgan bo'lsa, qo'shimcha kelishuv emas, yangidan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish imkonini beradi. Biroq shartnoma umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdorda bo'lishi lozim. Bu esa avvalgi tahrirdagi 10 foizlik cheklov to'g'ridan to'g'ri shartnoma shaklida qonunchilikda saqlanib qolganidan dalolat beradi.

Qozog'iston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni 18-moddasi davlat xaridi shartnomalarini o'zgartirish masalasini bosqichlarga ajratilgan holda tartibga solib, ushbu institutni ikki alohida huquqiy rejim doirasida ko'rib chiqadi: birinchisi – tuzilmagan shartnomaga o'zgartirish kiritish; ikkinchisi esa – allaqachon tuzilgan shartnomani o'zgartirish. Mazkur yondashuv davlat xaridlari jarayonida shartnomaviy munosabatlarning turli bosqichlarida turlicha huquqiy vositalardan foydalanish zaruratini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Birinchi kategoriya – tuzilmagan shartnomaga o'zgartirish kiritish qat'iy protsessual va mazmuniy cheklovlar bilan tavsiflanadi. Qonunchilikka ko'ra, shartnoma loyihasiga o'zgartirish faqat muhim shartlar o'zgarish bilan va qisqa muddat ichida (belgilangan vaqt oralig'ida) amalga oshirilishi mumkin. Bunda o'zgartirish asosan shartnoma summasini kamaytirish bilan cheklanadi va faqat tomonlarning o'zaro roziligi asosida yo'l qo'yiladi. Mazkur bosqichdagi o'ziga xos jihat shundaki, qonun o'zgartirish imkoniyatini minimal darajada saqlab qolgan bo'lib, xarid natijalarining barqarorligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Shu bilan birga, g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda muddatni uzaytirish imkoniyatining mavjudligi jarayonning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchi kategoriya – tuzilgan shartnomani o'zgartirish yanada murakkab va tizimli tartibga solingan bo'lib, qonunda bunday o'zgartirishlar uchun aniq va yopiq asoslar ro'yxati belgilangan. Mazkur ro'yxatga, jumladan, narxni kamaytirish, loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishi va qo'shimcha moliyalashtirish ajratilishi asosida shartnoma summasini oshirish, xarid hajmining o'zgarishi, sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, shuningdek, soliq, bojxona yoki boshqa normativ o'zgarishlar bilan bog'liq holatlar kiradi. Bundan tashqari, qonunchilik shartnoma ijrosi jarayonida yuzaga keladigan obyektiv holatlar moliyalashtirish jadvalining o'zgarishi, fors-major vaziyatlar, favqulodda holatlar yoki boshqa tashqi omillar sababli shartnoma muddatlarini o'zgartirish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Mazkur ikki bosqichli tartibga solish modeli davlat xaridlarida shartnomani o'zgartirish institutining muvozanatli tabiatini aks ettiradi. Bir tomondan, qonun xarid natijalarining o'zgarishini ta'minlash maqsadida o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritishni qat'iy cheklaydi; ikkinchi tomondan esa real xo'jalik faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqib, aniq belgilangan holatlarda shartnomani moslashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan, Qozog'iston qonunchiligi davlat xaridlarida shartnomani o'zgartirishga ruxsat beradi, biroq faqat qonunchilikda oldindan aniq belgilangan doira va shartlar asosida. Umuman olganda, 18-moddaning mazkur yondashuvi davlat xaridlari tizimida shartnoma barqarorligi va iqtisodiy moslashuvchanlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u amaliyotda yuzaga keladigan qo'shimcha ishlar, narx o'zgarishi va ijro muddati bilan bog'liq muammolarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat xaridlari sohasida shartnomalarni o'zgartirish masalasi Germaniya va Avstriya huquqida, avvalo, Yevropa Ittifoqi direktivasidagi *substantial modification* (jiddiy o'zgartirish) konsepsiyasi orqali tartibga solinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgarish uning iqtisodiy muvozanatini, mazmunini yoki xarid natijasini sezilarli darajada o'zgartirsa, bunday o'zgarish yangi xarid tartibini talab etuvchi noqonuniy o'zgartirish sifatida baholanadi. Mazkur mezon yuqorida aytganimizdek, Yevropa Ittifoqi direktivalari, xususan 2014/24/EU direktivasining

72-moddasida mustahkamlangan bo'lib, u Germaniya va Avstriya qonunchiligiga deyarli o'zgartirishsiz implementatsiya qilingan.

Alohida e'tibor shartnoma tomonining o'zgarishi masalasiga qaratiladi. Germaniya va Avstriya huquqida, odatda, pudratchining o'zgarishi shartnomaning muhim o'zgarishi sifatida baholanadi. Biroq ayrim istisnolar mavjud bo'lib, ular, jumladan, universal huquqiy vorislik, qayta tashkil etish yoki ichki o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda yangi subyekt dastlabki xarid talablariga javob berishi va buyurtmachi tomonidan sun'iy ravishda tanlab olinmagan bo'lishi shart. Aks holda, bunday o'zgarishlar davlat xaridlari prinsiplari, xususan raqobat va shaffoflik talablarini buzadi (Dragoş et al., 2023).

Shartnoma bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan shartlarga rioya qilinmaslik holatlari esa Germaniya va Avstriya davlat xaridlari qonunchiligida maxsus tartibga solinmagan bo'lib, ular umumiy fuqarolik huquqi normalari orqali hal etiladi. Xususan, Avstriya Fuqarolik kodeksiga (ABGB) muvofiq, kreditor majburiyat buzilgan taqdirda shartnomani davom ettirish va zarar undirish, shartnomadan voz kechish, narxni kamaytirish yoki bajarishni talab qilish huquqiga ega. Germaniya huquqida ham shunga o'xshash mexanizmlar mavjud bo'lib, ular majburiyatni bajarishning imkonsizligi, shartnomadan chiqish va zarar undirish institutlari orqali amalga oshiriladi. Bu esa shuni anglatadiki, har qanday o'zgarish avtomatik tarzda shartnoma o'zgarishi sifatida baholanmaydi, balki uning huquqiy tabiati alohida aniqlanishi lozim. Oldindan ko'rib bo'lmaydigan holatlar davlat xaridlari shartnomalarini o'zgartirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu institut ehtiyotkor buyurtmachi tomonidan ham oldindan aniqlanishi mumkin bo'lmagan holatlar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Bunga, masalan, COVID-19 pandemiyasi yoki texnik jihatdan kutilmagan holatlar kiradi. Bunday o'zgarishlar faqatgina shartnomaning umumiy xarakterini o'zgartirishligi va ularning qiymati ma'lum chegaradan (odatda 50 foizdan) oshmasligi sharti bilan ruxsat etiladi.

Noqonuniy shartnoma o'zgartirishlarining huquqiy oqibatlari masalasida Germaniya va Avstriya huquqi qat'iy yondashuvni qo'llaydi. Xususan, agar shartnoma o'zgartirilishi yangi tanlov o'tkazilmasdan amalga oshirilgan bo'lsa, bunday shartnoma, odatda, haqiqiy emas deb topiladi. Avstriya huquqida esa sud shartnomani to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin. Agar xizmatlar allaqachon bajarilgan bo'lsa, bekor qilish qisman qo'llanilib, restitutsiya yoki qiymatni qayta hisoblash mexanizmlari ishga tushiriladi. Shaffoflik prinsipi davlat xaridlari shartnomalarini o'zgartirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Avstriya huquqiga ko'ra, shartnoma o'zgartirilganligi to'g'risida e'lon berilmagan taqdirda ma'muriy javobgarlik chorasi qo'llaniladi.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijasida davlat xaridi shartnomalariga o'zgartirish kiritish instituti fuqarolik-huquqiy va ommaviy-huquqiy elementlar uyg'unlashgan murakkab huquqiy mexanizm ekanligi aniqlandi. Ushbu institutning asosiy mohiyati shartnoma barqarorligini ta'minlash bilan birga, real iqtisodiy va tashkiliy ehtiyojlardan kelib chiqib shartnomaviy munosabatlarni moslashtirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan davlat xaridi shartnomasining qoidalari har doim ham davlat xaridlari ishtirokchilarini qoniqtirmaydi, bu nafaqat noqonuniy yoki amalga oshirib bo'lmaydigan shartnoma shartlarini belgilashga ta'sir qiladi, balki raqobatbardosh xaridlarda ishtirok etish uchun cheklovlar ham yaratadi (Burakova, 2023).

Tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari shartnomalariga o'zgartirish kiritish masalasi yetarli darajada tizimli tartibga solinmagan bo'lib, amaldagi qonunchilikda ushbu institutning aniq chegaralari va mezonlari to'liq belgilab berilmagan. Natijada amaliyotda qo'shimcha ishlar, shartnoma muddatlarini o'zgartirish hamda narx va hajm bilan bog'liq masalalarda turlicha yondashuvlar shakllanmoqda.

Qiyosiy-huquqiy tahlil Germaniya va Avstriya tajribasida "muhim o'zgarish" konsepsiyasiga asoslangan yondashuv, Qozog'iston qonunchiligida esa o'zgartirishning aniq va yopiq asoslari tizimi mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuvlar shartnomani o'zgartirishda huquqiy aniqlik, shaffoflik va prognoz qilinadiganlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikda davlat xaridlari shartnomalariga o'zgartirish kiritishning asoslari, chegaralari va tartibini aniq belgilash, shuningdek, o'zgartirishlarni baholashda "muhim o'zgarish" mezonini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa davlat xaridlari tizimida shartnomaviy munosabatlarning barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

- Burakova, I. K. (2023). Implementation of the principle of freedom of contract in public and municipal procurement. *Saratov Herald Articles Love Academy*, 1(150), 162–166. <https://doi.org/10.24412/2227-7315-2023-1-162-166>
- Dragoş, D., Halonen, K., Neamţu, B., & Treumer, S. (Eds.). (2023). *Contract changes*. Edward Elgar Publishing. <https://doi.org/10.4337/9781800375598>
- DXMAP. (n.d.). Xarid jarayonlari bo'yicha umumiy ma'lumotlar [General information on procurement processes]. <https://xarid.imv.uz/>
- European Parliament and Council of the European Union. (2014). *Directive 2014/24/EU on public procurement and repealing Directive 2004/18/EC*. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0024>
- Gureva, S. R. (2025). *Legal regulation of the conclusion of state (municipal) contracts* (Doctoral dissertation). Russian State University of Justice.
- Okyulov, O., Imomov, N., & Mehmonov, Q. (2021). *Drafting contracts*. TSUL Publ.
- Plenum of the Supreme Economic Court of the Republic of Uzbekistan. (2016). *Resolution "On certain issues of application of legislation by economic courts in resolving disputes arising from construction contracts"*. (No. 306) <https://lex.uz/uz/docs/-3106543>
- Podshilova, T., Kavninoy, V., & Sagandikova, M. (2018). *Principles of private law*. Prospect.
- Rahmonkulov, H. (2009). *Law of obligations*. TSIL Publ.
- Republic of Kazakhstan. (2024). *Law "On Public Procurement"*. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z2400000106>
- Republic of Uzbekistan. (1996). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan*. <https://lex.uz/docs/-111189>
- Republic of Uzbekistan. (2021). *Law on Public Procurement*. <https://lex.uz/docs/-5382974>
- Samandarova, F. (2025) Evaluation of public procurement transactions as a special type of contract. *Review of Law Sciences* (9)3, 52-61. <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2025.9.3./KARD1240>
- Shmeleva, M. V. (2013). *Grazhdansko-pravovoe regulirovanie kontraktnykh otnoshenii pri gosudarstvennykh i munitsipalnykh zakupkakh v Rossiiskoi Federatsii* [Civil law regulation of contractual relations in state and municipal procurement in the Russian Federation] (Doctoral dissertation). Saratov State Law Academy.
- United Nations Commission on International Trade Law. (2011). *UNCITRAL Model Law on Public Procurement*. United Nations. <https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/mediadocuments/uncitral/en/2011-model-law-on-public-procurement-e.pdf>
- Zokirov, I. B. (2006). *Civil law*. TSIL Publ.

**O'ZBEKISTON  
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL  
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN  
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL  
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.